

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 2475,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 10,9 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan.

**E'tibor bering:**  
2018 yil yanvar-mart

- Aholi soni **10,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **10,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **4,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,1 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Toshkent shahar aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)

**Tirik tug'ilganlar**  
10,1 ming bola

Tabiiy  
o'sish  
+5,9  
ming kishi

**Ko'chib kelganlar**  
7,2 ming kishi


Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
+5,1  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
11,0  
ming kishi

**Vafot etganlar**  
4,2 ming kishi


**Ko'chib ketganlar**  
2,1 ming kishi

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
 (2018 yil 1 aprel holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)



Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 354,1 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayhontohur tumanida 331,6 ming kishini (13,4 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 33,3 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 117,7 ming kishi (4,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 2,7 %ga, Bektemir va Yashnabod tumanlarida 2,1 %ga, Uchtepa tumanida 2,0 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Mirzo Ulug'bek tumanida 1,3 %ni, Yakkasaroy tumanida 1,5 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 10,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 16,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Olmazor tumanida (17,6 promilledan 18,2 promillega) va Yakkasaroy (12,4 promilledan 13,0 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Uchtepa (19,3 promilledan 18,1 promillega) va Yunusobod (17,1 promilledan 15,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### **Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)**

	2017y.	2018y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar tumanlar:</b>			
Uchtepa	1 232	1 175	95,4
Bektemir	184	189	102,7
Yunusobod	1 348	1 274	94,5
Mirzo Ulug'bek	875	948	108,3
Mirobod	454	495	109,0
Shayxontoxur	1 456	1 433	98,4
Olmazor	1 505	1 585	105,3
Sirg'ali	860	860	100,0
Yakkasaroy	354	377	106,5
Yashnobod	898	834	92,9
Chilonzor	890	941	105,7

### **Ma'lumot uchun**

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 7,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 7,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Uchtepa (6,9 promilledan 7,2 promillega) va Yakkasaroy (4,9 promilledan 5,5 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Yashnobod (9,6 promilledan 8,4 promillega), Mirobod (8,4 promilledan 7,9 promillega), va M.Ulug'bek (8,4 promilledan 7,5 promillega) tumanlarida kuzatildi.


### **Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi (yanvar-mart)**

	2017 y.	2017 y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	4 273	4 239	99,2
tumanlar:			
Uchtepa	439	468	106,6
Bektemir	60	63	105,0
Yunusobod	552	581	105,3
Mirzo Ulug'bek	545	497	91,2
Mirobod	275	261	94,9
Shayxontoxur	420	407	96,9
Olmazor	555	564	101,6
Sirg'ali	343	338	98,5
Yakkasaroy	139	160	115,1
Yashnobod	525	473	90,1
Chilonzor	420	427	101,7

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,8 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 12,7 %i o'simtalardan, 5,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,9 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 6,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



### 2018 yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 5,9 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 101,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
5,9 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh va nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,1 ming nikoh va 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,0 va 1,6 promilleni tashkil etdi.



### **Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati foizda	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 923</b>	<b>3069</b>	<b>105,0</b>	<b>932</b>	<b>983</b>	<b>105,5</b>
tumanlar:						
Uchtepa	289	304	105,2	81	88	108,6
Bektemir	81	61	75,3	22	19	86,4
Yunusobod	368	386	104,9	139	117	84,2
Mirzo Ulug'bek	333	272	81,7	112	113	100,9
Mirobod	135	133	98,5	53	71	134,0
Shayxontoxur	362	442	122,1	104	88	84,6
Olmazor	350	330	94,3	112	112	100,0
Sirg'ali	308	300	97,4	79	109	138,0
Yakkasaroy	110	188	170,9	33	46	139,4
Yashnobod	291	292	100,3	110	112	101,8
Chilonzor	296	361	122,0	87	108	124,1

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 5,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida 3,0 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	5,6	7,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,6	2,1
<b>Migratsiya saldosi</b>	3,0	5,1

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (0,8 ming kishi), Uchtepa va Mirzo Ulug'bek (0,6 ming kishi) xamda Shayhontohur va Sergeli tumanlarida (0,5 ming kishi) qayd etildi.